



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

JAHON MAMLAKATLARI JUMLADAN, O'ZBEK VA TURK TILLARIDA AYRIM MEVA NOMLARINING RAMZIYLIGI

Hojiyeva Nigina Hayotovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti

o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi,

filologiya fanlari doktori (PhD)

sh.g.hojiyeva@buxdpi.uz

Mutalibova Saodat O'lmas qizi ,

Bux.DPI magistranti

saodatmutalibova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda o'zbek va turk tillarida meva nomlarining ramziy ma'nolari qiyosiy tahlil qilindi. Meva nomlarining faqat tabiiy hodisa emas, balki har ikkala xalqning madaniy o'zligiga, dunyoqarashiga va hayot falsafasiga oid muhim lingvistik belgilar ekanligi aniqlangan. O'zbek va turk xalq og'zaki ijodida mevalar – baraka, sevgi, go'zallik, sabr, sadoqat kabi umuminsoniy qadriyatlarning ramzi sifatida qo'llanilgan. Bu holat ikki qardosh xalqning umumiy madaniy ildizlarini va dunyoqarashdagi o'xshashliklarini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot natijasida meva nomlari til va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ko'rsatuvchi kuchli ramziy unsurlar ekani yana bir bor isbotlandi.

Kalit so'zlar: meva nomlari, ramziylik, o'zbek tili, turk tili, madaniyat, qiyosiy tahlil.

Meva dunyoning ko'plab hududlarida baraka va boqiylik ramzi sifatida qoraladi. Xudolarga oziq beruvchi Hayot daraxti bilan tez-tez bog'lanadigan meva – kelajak avlodlarning urug'ini o'zida saqlovchi ulug' ne'mat hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi diniy kitoblarda ham tilga olingan, hatto ba'zilar insonning "Jannatdan quvilishi" ramziga aylangan. Quyida, dunyo mamlakatlari, shu jumladan, turk va o'zbek xalqida mevalarga yuklatilgan ramziy ma'nolarni birgalikda ko'zdan kechiramiz.

OLMA: Turk adabiyotida olma muhabbat, baraka, yoshlik va abadiylik ramzi sifatida qabul qilinadi. Uning dumaloq shakli cheksizlikni bildiradi. U sevgi mavzusi bilan ko'p bog'lanadi. Kelt qabilalarida esa olma o'limdan keyingi hayot va baraka timsoli bo'lgan. Xitoyda u tinchlik belgisi sifatida talqin qilinadi. Injilda esa Havvo yegan taqiqlangan meva bo'lib, bu hol yo'ldan chiqish va gunohni anglatadi.

O'zbek xalq adabiyotida olma mevasining ramziy ma'nosi juda kengdir. Olma – go'zallik, sevgi va poklik timsoli sifatida talqin qilinadi. Ko'plab ertaklar, maqollar va topishmoqlarda olma hayotning shirinligi, baxt va tilaklarning ushalishi bilan bog'lanadi. Ba'zan olma inson qalbidagi yaxshilik, sadoqat va halollikni ifodalaydi. Shu bois olma o'zbek xalq madaniyatida hayot go'zalligi va sof tuyg'ular ramzi sifatida muhim o'rin egallaydi.

SHAFTOLI: Xitoy, Yaponiya shu jumladan, Turkiyada shaftoli abadiylik bilan, uning guli esa bahor fasli bilan bog'lanadi. Taoistlar va yevropaliklar shaftolini poklik (bokiralik) timsoli sifatida ham talqin qiladilar. Rimliklar uchun esa u nikoh ma'budasi Humenning muqaddas mevasi hisoblangan. Shaftoli Bokira Maryam va go'dak Iso bilan birga tasvirlanganida, xristianlikda najot ramzi sifatida talqin qilinadi.

O'zbek xalq adabiyotida shaftolining ramziy ma'nosi nafislik va go'zallik bilan bog'liq. Shaftoli – noziklik, sevgi va yoshlik ramzi sifatida baholanadi. Uning yumshoq po'sti va yoqimli hidi inson qalbidagi samimiyat va poklikni ifodalaydi. Ba'zan shaftoli yuz go'zalligiga o'xshatilib, tashqi ko'rinish bilan ichki ezgulik uyg'unligini bildiradi. Shu sababli, shaftoli o'zbek xalq madaniyatida go'zallik, sevgi va samimiy tuyg'ular ramzi sifatida qadrlanadi.

ANJIR: Turk madaniyatida uchraydigan baraka ramzi hisoblanadi. U Hayot daraxtini ifodalaydi hamda erkaklik va ayollik timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning bargi erkaklikni, mevasi esa ayollikni anglatadi. Ibroni an'analari esa anjir tinchlik va mo'l-ko'llik ramzi sifatida qoraladi.

O'zbek xalq adabiyotida anjir mevasi ramziy jihatdan juda boy ma'noga ega. Anjir – baraka, mo'l-ko'llik va farovonlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, u yumshoqlik, samimiyat va sevgi ramzi sifatida ham qabul qilinadi. Ba'zi manbalarda anjirning ko'p urug'li tuzilishi baraka va avlod davomiyligi bilan bog'lanadi. Shu sababli, anjir o'zbek xalqining an'alarida hayot, baraka va osoyishtalik ramzi sifatida muhim o'rin egallaydi.

UZUM: Turk adabiyotida uzum – sharob bilan bog'liqligi tufayli bayram, lazzat va baraka kabi tushunchalar bilan bog'lanadi. Yevropada rimliklarning Baxus xudosisiga nisbat beriladi.

O'zbek xalq adabiyotida uzum mevasi hosildorlik, baraka va hayotning davomiyligi bilan bog'liq ramziy ma'noga ega. Uzum mehnat, sabr va tirishqoqlikning shirin mevasi sifatida talqin qilinadi. Shingil-shingil uzum esa mo'l-ko'llik va baxt-saodat ramzi hisoblanadi.

APELSIN (portakal) – uning guli va mevasi bir paytda yetilishi sababli baraka ramzi hisoblanadi. Xitoyliklar yangi yilning ikkinchi kunida omad keltiradi degan ishonch bilan apelsin yeydilar, bu esa apelsinni abadiylik timsoli bilan bog'laydi.

O'zbek xalq adabiyotida apelsin mevasi quvonch, yangilanish va hayotga shodlik baxsh etish bilan bog'liq ramziy ma'noga ega. Apelsin o'zining yorqin rangi va yoqimli hidi bilan insonda ijobiylik, ilqlik va baxtiyorlik tuyg'usini uyg'otadi. Ba'zan u quyosh, yorug'lik va umid ramzi sifatida talqin qilinadi.

NOK (armut) – sevgi va onalik ramzidir. Turk xalq madaniyatida u mehnat, sadoqat va tabiiy go'zallikni ifodalovchi timsol sifatida qadrlanadi.

O'zbek xalq adabiyotida nok mevasi kamtarlik, soddalik va tabiiy go'zallik bilan bog'liq ramziy ma'noga ega. Nok — hosildor daraxt sifatida mehnatsevarlik va halollik ramzi deb qaraladi. Uning shirin, ammo sodd ta'mi insonning ichki pokligi va samimiy niyatlarini ifodalaydi. Ba'zi manbalarda nok daraxti osoyishtalik, baraka va sadoqat timsoli sifatida ham tilga olinadi.

ANOR – turk xalq madaniyatida quyosh bilan bog'liq, yorqin donalari bilan to'lib-toshgan baraka va hayot qudrati ramzi hisoblanadi. Yunon mifologiyasida u yoshartirish bilan bog'langan. Xristianlar esa yangi yil kechasida eshik oldida anor yorib, kelayotgan yilda ularning uyiga baraka kirishini tilaydilar.

O'zbek xalq adabiyotida anor mevasi serfarzandlik, baraka va birlik ramzidir. Anorning ko'p donali tuzilishi hayotning davomiyligi, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik va oila ichidagi totuvlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning qizil rangi esa sevgi, go'zallik va hayot quvonchini ifodalaydi. Shuningdek, anor sog'lik, poklik va farovonlik ramzi sifatida ham qadrlanadi. Shu sababli, anor o'zbek xalq madaniyatida baraka, sevgi va hayot qudrati ramzi sifatida muhim o'rin tutadi.

XURMO – arab xalqlarida Hayot daraxti ramzi hisoblanadi. Cho'l sharoitida oziq manbai bo'lgani sababli u hayot va bardoshlilik qudratini ifodalaydi. Uning mevasi Qadimgi Misr, Yaqin Sharq va Turkiyada baraka ramzi sifatida qadrlangan.

O'zbek xalq adabiyotida xurmo mevasi sabr, poklik va ma'naviy kuch bilan bog'liq ramziy ma'noga ega. Issiq iqlim mevasi sifatida xurmo insonning chidamliligi, irodasi va hayot sinovlariga bardosh berish qobiliyatini ifodalaydi.

Ushbu tadqiqotda o'zbek va turk tillarida meva nomlarining ramziy ma'nolari qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Meva nomlarining faqatgina tabiat unsuri emas, balki har ikki xalqning madaniy o'zligi, dunyoqarashi va hayot falsafasini aks ettiruvchi muhim til birliklari ekani aniqlangan. O'zbek va turk xalq og'zaki ijodida mevalar – baraka, sevgi, go'zallik, sabr, sadoqat kabi umuminsoniy qadriyatlar ramzi sifatida ishlatilgan. Bu holat ikki qardosh xalqning umumiy madaniy ildizlari va dunyoqarashdagi o'xshashliklarni yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot natijasida meva nomlari til va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ko'rsatuvchi kuchli ramziy unsurlar ekanligi yana bir bor isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Kökenleri ve anlamları ile Semboller&İşaretler kitabı.

- 2.Aksoy, Ö. A. (1988). Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. İstanbul: İnkılap Kitabevi.
- 3.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5tomlik. 2-tom. T.:O'ZME,2006.
- 4.Blogger.com- <https://kahramaninruhsalyolculugu.blogspot.com/2012/04/dunya-meyvelerine-sembolizm-acsndan-bir.html?m=1>
- 5.Scribd-<https://www.scribd.com/document/734807752/Mesnevi-de-meyve-ve-bitki-sembolizmi>